TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYA

2023
4-son

ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal



ISSN 2181-8274

Muassislar:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Manzil: 100095, Toshkent sh.
2-Chimboy ko‘chasi, 96-uy.
Telefon: (71) 207-03-41
e-mail: rmxat@edu.uz

Jurnal O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligidan 2014-yil 26-dekabrda 0506 raqami bilan ro‘yxatdan o‘tgan.

Jurnal har ikki oyda o‘zbek, rus va ingliz tillarida elektron shaklda chop etiladi.

“Ta‘lim, fan va innovatsiya” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2015-yil 18-noyabrdagi 218/5-sonli qarori bilan 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha, 2018-yil 28-noyabrdagi 247/6-sonli qarori bilan 23.00.00 – SIYOSIY FANLAR bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Ta‘lim, fan va innovatsiya” jurnalidan ko‘chirib bosish faqat tahririyatning roziligi bilan amalga oshiriladi. Maqolada keltirilgan faktlarning to‘g‘riligi uchun muallif mas’uldir. Tahririyat fikri mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin.

*Jurnalning to‘liq matnini **esijournal.uz** rasmiy saytidan yuklab olishingiz mumkin.*

*Maqola va murojaatlarningizni **@esijournalbot** telegram botiga yuboring.*

Islomjon Haydarov
Eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarga tabiatshunoslik darslarining ta’limiy, tarbiyaviy, korreksion-rivojlantiruvchi vazifalari.....51

Orastabonu Isomiddinova, Venera Kamburova, Shaxnoza Mamatkulova, Azadaxan Imamxodjaeva, Nodira Rahmatova, Feruza Babadjanova
Bisyor gen-nokaut kartoshka navining bioxavfsizligini baholash.....53

Asror Karimov
Creating an artificial intelligence-based adaptive complex of road network throughput to improve road safety.....57

Lola Zoirova
Oliy ta’limda radiatsion tibbiyot va texnologiyalar fanini o‘qitishda multimedia ta’lim texnologiyalari 60

Dilshod Eshboboyev
Zamonaviy menejment ta’limiga qo‘yiladigan talablar.....62

Nurmuhammad Qarshiyev
Ko‘ppartiyaviylikning fuqarolik jamiyati taraqqiyotidagi roli 66

Turg‘unoy Kaziyeva
Ibratli matnlar orqali talabalarning ma’naviy tafakkurini takomillashtirish 69

Тўлқин Каримов
Олий Мажлиснинг мудофаа ва хавфсизлик соҳасидаги назорати — барқарор тараққиёт омили 72

Venera Kamburova, Shaxnoza Mamatkulova, Azadaxan Imamxodjayeva, Nodira Rahmatova, Orastabonu Isomiddinova
Fitoxrom a1 geni rnk interferentsiyasining g‘o‘zada chidamlik genlari ekspressiyasiga ta’siri 76

Mirzobobur Qambarov
Talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning pedagogik tizimini takomillashtirishning muhim yo‘nalishlari.....80

Насиба Тургунова
Ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширувчи субъектлар фаолиятининг муҳим жиҳатлари.....83

Azim Xalilov
Maxsuslashtirilgan dasturiy vositalardan biologiya va bioinformatika fanlarini o‘qitishda foydalanish 86

Muqaddas Norqulova
Amaldagi davlat ta’lim standarti, o‘quv dasturlari, o‘quv-uslubiy majmualarini o‘rganish 89

Kuatbay Mirzabayev
Siyosiy texnologiya tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari.....92

Nodima Oripova
Bo‘lajak pedagoglarda ijtimoiy-pedagogik kompetentlik sifatlarini rivojlantirishga doir xorijiy tajribalar tahlili 96

TALABALARNI TARBIYAVIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING MUHIM YO‘NALISHLARI

Mirzobobur Qambarov,
Buxoro davlat universiteti
“Pedagogika” kafedrasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Maqolada tarbiyaviy faoliyat tushunchasining mazmuni tarbiya jarayoni, tarbiyalash jarayoni, tarbiyaviy jarayonni tashkil etish, tarbiyaviy faoliyatni uyushtirish kabi ma’nolarni anglatishi bayon etilib, “tarbiyaviy faoliyat”, kabi tushunchalar mazmuni yoritilib, tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda kompetentlik hamda tarbiyaviy faoliyatning tarkibiy qismlari tasniflangan. Shuningdek, bo‘lajak oliy ma’lumotli mutaxasislarning tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning quyidagi: axborot, taqdimot, kommunikativ, tashkiliy, transformatsion funksiyalari mazmuni, ahmiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar*: ilm, funksiya, fan, tizim, kompetensiya, kompetentlik tarkib, qism, ta’lim, standart, samara, maxsus uslubiy, natija, imkoniyat, tarbiyaviy faoliyat.*

Аннотация

В статье раскрывается содержание понятия образовательной деятельности, подразумевая процесс обучения, процесс воспитания, организацию образовательного процесса, организацию образовательной деятельности, содержание такого понятия, как «образовательная деятельность». выделены компетенции в организации учебной деятельности и классифицированы компоненты учебной деятельности. Также выделены содержание и значение следующих: информационной, презентационной, коммуникативной, организационной, преобразовательной функций подготовки будущих специалистов высшего образования к образовательной деятельности.

Ключевые слова: *наука, функция, наука, система, компетенция, компетенция, содержание, часть, образование, стандарт, эффект, специально-методический, результат, возможность, образовательная деятельность.*

Annotation

The content of the concept of educational activity is explained in the article, meaning the process of education, the process of education, the organization of the educational process, the organization of educational activities, the content of such concepts as “educational activity” is highlighted, competence in organizing educational activities and the components of educational activities are classified. . Also, the content and importance of the following: information, presentation, communicative, organizational, transformational functions of preparing future higher educated specialists for educational activities are highlighted.

Keywords: *science, function, science, system, competence, competence, content, part, education, standard, effect, special methodological, result, opportunity, educational activity.*

Jahonda kechayotgan globallashuv jarayonlari, ta’lim-tarbiya tizimini ilm-fan taraqqiyotining eng so‘nggi yutuqlari negizida modernizatsiyalash ta’limni axborotlashtirish sharoitida yoshlarning ijtimoiy faolligini “ommaviy madaniyat”, terrorrizm, ekstremizm, negilizm, giyohvandlik kabi salbiy illatlarga qarshi mafkuraviy kurash modellari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Jumladan, Sarbon deklaratsiyasi (Sorbonne Declaration), ta’lim barcha uchun (Education For All (EFA)), yillik rivojlanish maqsadlari (Millennium Development Goals (MDGs)), Jahon ta’lim forumi (World Education Forum) va Lissabon Konvensiyalari doirasida hamda Bolonya jarayoni tarkibida talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirishning innovatsion yo‘nalishlarini belgilash, tarbiya jarayonining interfaol shakllari variativligini ta’minlash borasida yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.

Jahon ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida shaxs tarbiyasini amalga oshirishning mazmuni va axborot-ta’lim muhitini shakllantirish, kasbiy-pedagogik ijodkorlik muammolariga yechim topish (Benchmarking), ta’lim sifatini oshirishni yangicha pedagogik tafakkur va zamonaviy innovatsion metodlar vositasida kompleks boshqarish (Total quality management), yagona elektron tizim orqali ta’limni amalga oshirish talaba – pedagog muloqoti, ta’lim berishning umumkasbiy va mutaxassislik kompetensiyalariga asoslangan (Tuning) intellektuallashtirilgan tizimlari hamda o‘qitishning bosqichli modellarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, ta’lim oluvchilarda kreativ ijodiy fikrlash, tahlil qilish, sintezlash, mujassamlashtirish qobiliyatlarini istiqbolli texnologiyalar vositasida takomillashtirish, ta’limning yangi paradigmalariga o‘tish, talabalarning o‘z-o‘zini ijodiy rivojlantirishini ta’minlovchi innovatsion yondashuvlarning metodologik asoslarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga ahamiyat berilmoqda [4, 124].

Respublikamizda so‘nggi yillarda innovatsion yondashuv asosida talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirishning me’yoriy-huquqiy asoslari yaratilmoqda. “Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuvni amalga oshirishda ta’lim muassasalari, oila va mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to‘liq

yuzaga chiqarish, ular orasida milliy, umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ilmiy-metodik uzviylikni sifat jihatdan yuqori darajaga ko‘tarish”dan ustuvor vazifa etib belgilandi. Bu, o‘z navbatida, talabalarni innovatsion yondashuv asosida tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Innovatsion yondashuv asosida talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish bilan bog‘liq ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalarida, jumladan, University of Massachusetts (AQSh), Evropean Qualification Framework (AQSh, Brussel), Development and Selection of Key Competencies (DeSeCo) (Shvetsariya), Nagoya universiteti (Yaponiya), Moskva davlat pedagogika universiteti (Rossiya), Belflid pedagogika universiteti (Germaniya) olib borilmoqda. Jahonda innovatsion yondashuv asosida talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirishga doir olib borilgan tadqiqotlarda tegishli ilmiy-amaliy natijalarga erishilgan. Jumladan, tarbiyaviy faoliyatga situativ ta’lim identivligini akmeologik faolligini uyg‘unlashtirish asosida takomillashtirilgan (Massachusetsk universiteti, AQSh), tarbiyaviy faoliyatni amalga oshirishga kompetensiyaviy yondashuvlar geymofikatsiya o‘yin texnologiyalarini kiritish asosida rivojlantirilgan (Evropean Qualification Framework, AQSh, Brussel), nazariy, kontseptual va statistik ko‘rsatkichlar ta’lim natijalariga nisbatan empirik natijalarni qo‘llash orqali takomillashtirilgan (Development and Selection of Key Competencies); o‘quvchilarda kreativ tafakkurning samarali shakllari o‘zida aks ettiruvchi “Lesson Studuy”ning pedagogik diagnostik xususiyatlarini bosqichma-bosqich aniqlash asosida takomillashtirilgan (Nagoya universiteti, Yaponiya); talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashga ma’sullikni identiv loyihalashtirish asosida rivojlantirilgan (Moskva davlat pedagogika universiteti, Rossiya); tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashga oid ijtimoiy kompetensiyalar (Lernkompetenz), mazkur faoliyatga oid bilimlarning yangilab borilish monitoringini yuritish asosida takomillashtirilgan (Belfield pedagogical university, Germaniya).

Jahon ilmiy-tadqiqot muassasalarida talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashda ta’lim mazmunini o‘zlashtirishga turli tashkiliy omillarning ta’siri, tarbiyaviy faoliyatga tayyorgarlik jarayonida qobiliyat va ma’suliyatiga yondoshib, tarbiyaviy faoliyat komponentlarini belgilash va tanlash, tarbiyaviy faoliyatga tayyorgarlikning statistik ko‘rsatkichlarini kelajakda uzluksiz rivojlantirish, tarbiyaviy faoliyat natijalariga nisbatan empirik natijalarni tadqiq qilish, auditoriya, pedagogik amaliyot va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar davomida o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarining tarbiyaviy faoliyatga ta’sirini aniqlash bo‘yicha bo‘yicha ilmiy ishlar olib borilmoqda [1, 71].

O‘qituvchining o‘quvchi shaxsini tarbiyalash, rivojlantirish va o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun maqbul sharoitlarni yaratishga va erkin ijodiy o‘zini namoyon qilish imkoniyatlarini tanlashga qaratilgan harakatlar tizimi.

Tarbiyaviy faoliyat — insoniyat tomonidan to‘plangan madaniyat va tajribani avloddan avlodga o‘tkazishga, shaxsning shaxsiy rivojlanishi uchun sharoit yaratishga qaratilgan ijtimoiy faoliyat turi. Bizningcha, tarbiyaviy faoliyat tarbiya jarayonining maqsad va vazifalari, mazmuni, funksiyalarini bilish, ijobiy natijalarni kafolatlashga qaratilgan pedagogik qobiliyat turidir. Tadqiqotda, shuningdek, bo‘lajak oliy ma’lumotli mutaxasisni tarbiyaviy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagi: prognostik, tashkiliy, kommunikativ, ijodiy faoliyatni amalga oshirish va individual yondashuv, tadqiqotchilik kabi qobiliyat hamda ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerakligi qayd etilib, uning mazmuni tasniflangan. Bo‘lajak oliy ma’lumotli mutaxasisni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash funksiyalari tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash zaruriyati va qadriyatlar mantig‘i bilan asoslanadi [2, 41].

1. Axborot funksiyasi tarbiyaviy faoliyat madaniyatini shakllantirish uchun o‘quv mashg‘ulotlari, ta’lim va tarbiya subyektlarining aloqasi asosida amalga oshirilishi.

2. Taqdimot funksiyasi bo‘lajak oliy ma’lumotli mutaxassisning xulq-atvori va faoliyatidagi ijtimoiy-madaniy va pedagogik bilimlarini o‘quvchilarga yetkazish, shuningdek, tarbiya qadriyatlarini shakllantirish va taqdim etish zarurati bilan bog‘liq.

3. Kommunikativ funksiya o‘zaro aloqaning shaxsiy modeliga yo‘naltirilgan ta’lim subyektlarining hamkorligini ta’minlaydi.

4. Tashkiliy funksiya turli xil jamoaviy va ijodiy faoliyatni tashkil etish, shuningdek, ta’lim jarayoni va ta’lim tizimlarining rivojlanishini boshqarish zarurati bilan bog‘liq.

5. Transformatsion funksiya rivojlanish jarayonlari qonunlaridan foydalanishni, bo‘lajak o‘qituvchi shaxsining qiyofasini shakllantirishni ta’minlaydi.

Ko‘rinadiki, tarbiyaviy faoliyatning samarasi uni tashkil etishning maqsad va vazifalari, mazmuni, funksiyalarini bilishni talab etishi bilan birga, uni tashkil eta olish qobiliyatini egallaganlikni talab etadi. Bir so‘z bilan aytganda, tarbiyaviy faoliyatning samarasi uni tashkil etuvchi mutaxassisdan sohaga oid kompetnetlikni talab etadi [3].

Tarbiyaviy faoliyat — insoniyat tomonidan to‘plangan madaniyat va tajribani avloddan avlodga o‘tkazishga, shaxsning shaxsiy rivojlanishi uchun sharoit yaratishga qaratilgan ijtimoiy faoliyat turi. Bizningcha, tarbiyaviy faoliyat tarbiya jarayonining maqsad va vazifalari, mazmuni, funksiyalarini bilish, ijobiy natijalarni kafolatlashga qaratilgan pedagogik qobiliyat turidir. Tadqiqotda talabalarning tarbiyaviy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun prognostik, tashkiliy, kommunikativ, ijodiy faoliyatni amalga oshirish va individual yondashuv, tadqiqotchilik kabi qobiliyat hamda ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerakligi qayd etilib, uning mazmuni tasniflangan [5, 152].

Talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash funksiyalari tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash zaruriyati va qadriyatlar mantig‘i bilan asoslanadi. Jumladan, axborot funksiyasi tarbiyaviy faoliyat madaniyatini shakllantirish uchun o‘quv mashg‘ulotlari, ta’lim va tarbiya subyektlarining aloqasi asosida amalga oshirilishi, taqdimot funksiyasi talabalarning xulq-atvori va faoliyatidagi ijtimoiy-madaniy va pedagogik bilimlarini o‘quvchilarga yetkazish, shuningdek, tarbiya qadriyatlarini shakllantirish va taqdim etish zarurati bilan bog‘liq. Kommunikativ funksiya o‘zaro aloqaning shaxsiy modeliga yo‘naltirilgan ta’lim subyektlarining hamkorligini ta’minlaydi. Tashkiliy funksiya turli xil jamoaviy va ijodiy faoliyatni tashkil etish, shuningdek ta’lim jarayoni va ta’lim tizimlarining rivojlanishini boshqarish zarurati bilan bog‘liq. Transformatsion funksiya rivojlanish jarayonlari qonunlaridan foydalanishni, bo‘lajak o‘qituvchi shaxsining qiyofasini shakllantirishni ta’minlaydi.

Talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash insonparvarlik, eng oliy insoniy qadriyatlar, mehrlilik va do‘stlik, mehribonlik munosabatlarda mas’uliyatlilik, huquqiy madaniyatni yuksaltirish; mehnatga bo‘lgan ehtiyoj, mehnatsevarlikka hayotning eng oliy qadriyati-moddiy farovonlik, ijodkorlik manbayi sifatida qarash, xulq va muloqot madaniyati, o‘z qadrini bilish, real hayotiy vaziyatlarda o‘zlashtirilgan axloqiy tushunchalarga muvofiq harakat qilish, ekstremal vaziyatlarda kurashish va omon qolish, irodasining kuchli va zaif jihatlarini tanqidiy tahlil qila olish qobiliyatini rivojlantirish; milliy urf-odatlar, xalqning an’ana va qadriyatlariga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish; o‘zi haqidagi fikrlarni eshitish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirishni taqozo etadi. Pedagogika oliy ta’lim tashkilotlarida talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash shaxsning intellektual faoliyatiga qo‘yiladigan mantiqiy talab va me’yorlar mazmuni sifatida tushuniladi [6, 103].

Talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash jarayoni ulardan umumiy pedagogika, falsafa, mantiq, psixologiya, tarbiyaviy ishlar metodikasi kabi fanlar doirasida o‘rganiladigan barkamol shaxs tarbiyasining mazmuni, mohiyati, xususiyatlari, qonuniyatlarini bilish, ularga amal qilishni talab etishi bilan birga, quyidagi masalalarni e’tiborga olishni nazarda tutadi:

– tashkiliy: ta’lim jarayonida talabalarning faol subyektiv pozitsiyasini rag‘batlantirish; talabalar faoliyatini tashkil qilishda o‘quv jarayonining boshqa subyektlar (oliy ma’lumotli mutaxasis, ota-onalar) bilan o‘zaro munosabatini inobatga olish;

– mazmunli: kasbiy tayyorgarlik jarayonida talabalar faoliyatining har xil turlarini (kognitiv, dizayn-tadqiqot, amaliy ta’lim) rivojlantirish; o‘quv faoliyatini axborot-uslubiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash;

– motivatsion: talabalarning o‘quv faoliyatida muvaffaqiyatli ishtirokini ta’minlash talabalar bilan o‘quv loyihalarini ishlab chiqish, taqdim etish va amalga oshirish; talabalarning o‘zini o‘zi anglashiga hissa qo‘shadigan o‘quv mashg‘ulotlarini tahlil qilish rejasini tuzish;

– pedagogik qo‘llab-quvvatlash: o‘quv loyihalariga pedagog rahbarligi; talabalarning shaxsiy kasbiy rivojlanishiga qaratilgan individual maslahatlarni rejalashtirish [7].

Adabiyotlar tahlili, tadqiqot muammosi yuzasidan olib borilgan ilmiy izlanishlar talabalarni innovatsion yondashuv asosida tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish asoslarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish kerakligini ko‘rsatdi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar tarbiyaviy faoliyatni tashkil etuvchi bo‘lajak oliy ma’lumotli mutaxasisni ushbu faoliyatga tayyorlashda, ularning ushbu faoliyat mazmun-mohiyatini to‘laqonli anglashlari bilan birga, uni tashkil etishda yuqorida qayd etilgan jihatlarga alohida e’tibor qaratishlarini taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. J.Hasanboyev va boshqalar. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi). Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. O‘zR Oliy va o‘rta-maxsus ta’lim vazirligi. – T.: “Noshir”, 2016. – 456 b.

2. X.Ibragimov, Sh.Abdullayeva. Pedagogika nazariyasi (darslik). –T.: “Fan va texnologiya”, 2008. – 288 b.

3. Самиева Ш. Х. Важные направления инновационной подготовки молодежи к духовно-просветительской деятельности // Качество жизни населения промышленных территорий в стратегии «Общество 5.0». – 2022. – С. 153-156.

4. O‘.M.Asqarova, M.Xayitboyev, M.S.Nishonov. Pedagogika: Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – T.: “Talqin”, 2008. – 288 b.

5. N.S.Atayeva, F.Rasulova, M.Salayeva, S.Hasanov. Umumiy pedagogika. (Pedagogika tarixi). O‘quv qo‘llanma. I kitob. –T.: “Fan va texnologiya”, 2012. – 756 b.

6. Савин Н.В. Педагогика. – М.: Просвещение, 1978. – 265 с.

7. Samiyeva S. Инновационное развитие проектных навыков учащихся на основе креативного подхода // центр научных публикаций (DuxDU.uz). – 2023. – Т. 38. – №. 38.

8. Хуторской А.В. Педагогика: Учебник для вузов. Стандарт третьего поколения. – СПб.: Питер, 2019. – 608 с.